

ONA TILI FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI**Rayimqulova Nigora Davlatnazarovna***Surxondaryo viloyati Termiz shahar 14- maktab**ona- tili va adabiyoti fani o'qituvchisi*

Annotatsiya *Ushbu maqolada innovatsion texnologiya tushunchasi, o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda hamkorlikda ishlash, videotopishmoq metodining xususiyatlari, qo'llanilish ahamiyati, metodning taxlili natijasida o'quvchilarda erkin fikrlash va mas'uliyatlikni oshirish to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar. *Innovatsion texnologiya, hamkorlikda ishlash, metodlarning xususiyati va ijodiy erkin fikrlash.*

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning ko'rinish shakli bu dars hisoblanadi. Shu sababli dars, o'z navbatida, bir butunlik bo'lib, quyidagi qismlardan taskil to'gan: ta'lim-tarbiya beruvchi; ta'lim-tarbiya oluvchi; dastur va darslik, o'quv-uslubiy qo'llanma hamda didaktik materiallar; pedagogik usul va uslublar; o'qitishning texnik vositalari. Darsning bu besh qismi o'zaro funksional bog'liqlikda bo'lib, bir butunlik, ya'ni dars degan majmuani taskil etadi. Davlat ta'lim standarti(DTS) asosida ma'lum o'quv dasturi va rejadan kelib chiqib didak-tika-ning barcha tamoyillarga javob bera oladigan, pedagogik mahorat orqali maq-sadli sayqallangan usullar, vositalar, yo'llar, taktikalar, metodlar, texnik vositalar orqali amalga oshiriladigan jarayondir.

Hozirda ilm-fan, texnika va axborot kommunika-tsiya texnologiyalar, ishlab chiqarish sohalarining tez sur'atlarda jadallik bilan rivojlanishi umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya ishlarining har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlagan holda amalga oshirilishi, ta'limning hamma uchun tengligini ta'minlanishi, o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularda fuqarolik tuyg`usi, oila va davlat oldida mas'uliyat his qilish ko'nikmalarini shakllantirish, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, zamonaviy bilimlarni egallashlari va har tomonlama rivojlanishlari uchun ularga imkon qadar qulay sharoitlarni yaratish ta'lim sifati-ni oshirishning eng muhim omili hisoblanadi. Shu bois ona tili fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish muhim ahamiyatga ega.

Innovatsiya- bu nazariy asoslangan, maqsadga yo'naltirilgan hamda amaliy mo'ljallangan yangilik sanaladi. Bugungi kunda umumta'lim maktablarda innovatsion ta'lim nafaqat o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi faol dialogga kirishishni, balki dunyoni anglashda faol va tashabbuskor bo'lishni taqozo qiladi. Ushbu so'zga ta'rif bersak, "Innovatsiya"- lotincha so'z bo'lib, "yangilikni kiritaman, tatbiq etaman, o'zgartiraman" degan ma'nolarni bildiradi. Innovatsion ta'limning maqsadlari quyidagilardan iborat:

-ta'lim oluvchilarning yuqori darajadagi ma'naviy hamda intellektual shaxsiy rivojlanishini ta'minlash;

-ta'lim oluvchilarning ilmiy tafakkur ko'nikmalarini egallashga shart-sharoit yaratish;

-ijtimoiy-iqtisodiy hamda kasbiy sohalarga yangiliklarni kiritish metodologiyasini o'rgatishdan iborat. Innovatsion ta'limning asosiy vazifasi o'quv tarbiya tizimi nazariyasini innovatsion asosida qayta tashkil etib o'zlashtirishdan iborat.

Ta'lim-tarbiya - bolaning atrof-muhit bilan o'zaro aloqa turi hisoblanadi. U olamning turli ob'ektlariga asoslanib, sub'ektiv harakterga egadir. Pedagogik faoliyatda sub'ektivlikning - sub'ektivlikga ta'siri o'quvchining tevarak-atrofga munosabatini shakllantirishda ahamiyatga ega. Muloqotning erkinligi o'qituvchidan shaxsga mohirona ta'sir etishni talab etadi. Bola mustaqil tanlash huquqiga ega bo'lib, bu o'z hayotlariga sub'ektivlikni ta'minlaydi. Shuni esda tutish kerakki, bolada u yoki bu muloqotning shakllanganligi uning kelajakda insonlar, predmetlar, olam bilan o'zaro ta'sirida ahamiyatlidir. Ushbu holat o'quv jarayoniga ta'lim texnologiyalarini joriy etishning dolzarbligini ifodalovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyaga asoslangan darslarning an'anaviy darslardan farqi shundaki, bu darsda o'quvchiga erkinlik muhitini yaratib berib, unga o'z fikrini mustaqil bayon etishga imkon yaratib berishdir. Bu imkoniyat qanday yaratiladi? O'quvchining shaxsiyatiga tegmasdan savollar berish orqali do'stona munosabatdagi o'quv muhiti yaratiladi. Innovatsion pedagogik texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonining muhim qismi – darsning maqsadidan kelib chiqqan holda har bir darsni qoidalar ishlab chiqishdan boshlash, ta'lim jarayonining mazmunli o'tishiga ko'mak beradi. Darsning mazkur bosqichida o'quvchilarni g'oyalar va takliflar bilan chiqishga chorlash va shu vaqtning yzida barcha g'oya hamda takliflarni yozib borish lozim. Iloji boricha qisqa va tushunarli tarzda yozib qo'yilgan qoidalar o'quvchilar tomonidan (o'qituvchi yordamida) izohlanadi. Doskaga quyidagi qoidalarni yozib qo'yish mumkin:

-tanqid qilmang va baholamang (hech bir ishtirokchi boshqalar fikrini muhokama qilmasligi, baho berishi yoki tanqid qilishi mumkin emas);

- noto'g'ri javoblar bo'lmaydi (xato qilishdan qo'rqmang);

- o'zgartiring, yaxshilang, asoslang (boshqalar fikriga o'zgartirishlar kiriting, qo'shimcha qiling. Fikringizni asoslang);

-o'zingizni xotirjam tuting va ishtirok eting (o'zaro yordam va d'ystona musobaqa muhiti yaratiladi).

Ta'lim jarayonida y'naltirish va rag'batlantirish uchun qoidalar va fikrlar tyg'risida y'quvchilarga eslatib turish lozim. Innovatsion pedagogik texnologiya ta'lim tizimining yangicha yo'llarini ishlab chiqaruvchi jarayon bo'lib, unda o'qituvchi asosiy mas'ul shaxs xisoblanadi. Chunki uning asosiy vazifasi axborotni o'quvchilarga aniq va tushunarli tarzda yetkazib berishdan iborat. O'quvchilarning yangiliklarni qabul qilishlari va bunga moyilliklari hamda fe'l-atvori har-xil bo'lishiga qaramay o'qituvchi o'quvchilarni

mustaqil fikrlash, mushohada qilish, xulosa chiqarishga o'rgatishi lozim. Ta'lim tizimida sodir bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlar o'quvchilarga yangi bilim, ko'nikma va malakalarini berish, hamda kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bir qatorda, yoshlarimizni o'ziga va boshqa insonlarga, jamiyatga, davlatga, tabiatga nisbatan o'zgarishini, vatanparvarlik g'oyalarini ongiga va qalbiga singdirishini ham ko'zda tutadi. Ushbu jarayon xalqimizning boy ma'naviy me'rosi, an'ana va udumlarini o'quvchi qalbiga singdirish orqali amalga oshiriladi. Ona tili fanida mavzularni o'rganish va gaplarni tahlil qilish orqali ham yuqoridagi maqsadni amalga oshirish mumkin. Lekin ba'zi mashqlarda berilgan gaplar o'quvchilar uchun ham birdek tushunarli emasligi sababli, gaplar ustida ishlash jarayoni bir muncha murakkab va zerikarli kechishi mumkin. Bu holat ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik, o'zaro muloqot, bir-biriga ko'rsatadigan ta'sir zamonaviy talablar asosida, ya'ni hamkorlikka asoslangan ta'lim shakllangan bo'lishi lozim.

Hamkorlikka asoslangan ta'limda o'quvchilar o'zaro fikr almashadilar, muomala qilish malakalari oshadi. Har bir o'quvchi o'zi uchun, guruhi uchun javob berishga harakat qiladi, o'zaro ishonch paydo bo'ladi. Har bir o'quvchiga rahbarlik rolini bajarish uchun imkoniyat beriladi, hamda o'zaro do'stona munosabat shakllanib boradi. Hamkorlikka asoslangan ta'limning beshta asosiy xususiyatlari mavjud:

1. Ijobiy o'zaro bog'liqlik.
2. Mas'uliyatlilik
3. Yuzma-yuz o'tirish imkoni
4. Ijtimoiy malakalar
5. Baholash

Hamkorlikka asoslangan ta'lim - o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi mehnati asosida qurilganligi bilan xarakterlanadi. V.I.Juravlevning ta'kidlashicha: "Hamkorlikda ish olib borish nafaqat munosabatlar, balki bilish operatsiyasining tuzilishini, bilimlarni jamoa bo'lib egallash va mustaqil bo'lib yakka tartibda ishlashni (eng yaxshi sherik bo'lish uchun) ham talab etadi". Quyida innovatsion usul asosida ona tili fanidagi "Shakldosh so'zlar" mavzusini "Videotopishmoq" metodi orqali o'rganilishini namoyish etamiz.

Bugungi kunda, ta'lim jarayonida axborot bilan ishlash kompetensiyani shakllantirish – mediamanbalar: kompyuter, televidenie, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar, yangi rusumdagi telefonlar yordamida tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida o'qitishda turli axborot vositalaridan o'rinli, maqsadli, samarali foydalanish vazifasi turibdi. "Videotopishmoq" metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1. O'quvchilarga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish qilinadi
2. O'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganligini izohlaydi

3. O'quvchi video lavhalarda aks etgan jarayon, hodisa yoki voqeliklarning mohiyatini daftarlariga qayd etadi.

4. O'quvchilar o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytaradi.

Yangi mavzu: "Shakldosh so'zlar" haqida ma'lumotlar berishdan oldin ekranda videolavhalar namoyish etiladi.

Jonivorlar ichida bordir bir jonzot, - Odil to'pni menga(ot)

Uning nomi esa juda yaxshi(ot)

Yig'laganda to'kilar ko'zlaridan(yosh) - Mening ukam juda(yosh).

Jajji ukam samimiy.....(kuladi) - Daraxt shoxi yonganda hosil bo'lar....(kul)

Videolavhalar namoyish qilingach, o'quvchilardan lavhada qanday jarayon, hodisa yoki voqelik aks etganligi, qaysi mavzuga xos bo'lgan lavha ifodalanganligi yuzasidan mushohada yuritish talab qilinadi. Videotopishmoqning javobini topish orqali o'quvchilar o'rganiladigan yangi mavzu haqida tasavvurga ega bo'ladi. Ayniqsa, mavzuning nomlanishiga e'tibor qaratiladi va bu metod orqali o'quvchilarning barchasi darsga jalb qilinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'quvchilarga faqat bilim berishgina emas, balki bilim olishning yangicha usullarini o'rgatish muhim. Dars jarayonida o'quvchilarga yangi mavzu yuzasidan tushuncha berishdan ko'ra ularga mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, hamda mediamanbalar (kompyuter, televidenie, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, proektor, slayd, video va audio magnitofonlar) orqali erkin fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ko'proq natija beradi. Har bir mahoratli o'qituvchi ta'sir etishning shunday yo'lini tanlashi kerakki, bunda bola uchun qulay psixologik iqlim yaratib, bolaning individual xususiyatini rivojlantirishi va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirib mustahkamlash imkonini har doim topa olish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'qituvchi kitobi. Yangi nashr (5-sinf uchun). – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot ijodiy uyi. 2020. – 243 b.

2. Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalar o'quv moduli. – Toshkent: 2017. – 110 b.

3. Mahmudov N., Sobirov A., Sattorov Sh., Toshmirzayeva Sh. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 190 b.

4. Yo'ldoshev J.G'. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 132 b.

5. Ishmuhamedov R.M.Mirsolieva. "O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent - 2014. "Fan va texnologiya" nashriyoti.

6. Juravlev V.I. Pedagogika. Uchebnoe posobie. Rossiya: Izd-vo. Pedagogicheskoe obshestvo.1998. – 246.